

**O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. KASBIY  
FAOLIYATDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI**

Raximova Roxat Boysoatovna

Toshkent Tibbiyat akademiyasi o'qituvchisi

Tibbiy biologiya fakulteti 2- bosqich talabalari

Jo'rayeva Muazzam Bahriddinovna

Abduvohidova Sayyora Sherzod qizi

**Annotatsiya:** O'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish hozirgi kunda muhim o'rinn tutadi. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati qanchalik boy bo'lsa uning bilimi, tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi, fikr va mushohada yuritishi ham shuncha teran bo'ladi. Ushbu maqolada ta'limni sifatini oshirish uchun o'qituvchining pedagogik qobiliyati, uni rivojlantirish va undan foydalanish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Empatiya, perceptiv, kommunikativ, pantomimika, diapozon, tembr, Qobiliyat, nutq, pedagogika, ta'llim, madaniyat, notiqlik;

**Аннотация:** В настоящее время актуально формирование педагогического мастерства учителей. Чем богаче культура речи в педагогическом мастерстве учителя, тем глубже его знания, мышление, научный кругозор, мысли и наблюдения. В данной статье говорится о педагогической способности учителя, ее развитии и возможностях ее использования для повышения качества образования.

**Ключевые слова:** Эмпатия, перцептивная, коммуникативная, пантомима, диапазон, тембр, Способность, речь, педагогика, образование, культура, красноречие;

**Annotation:** At present, the formation of pedagogical skills of teachers is relevant. The richer the culture of speech in the pedagogical skill of the teacher, the deeper his knowledge, thinking, scientific outlook, thoughts and observations. This article talks about the pedagogical ability of the teacher, its development and the possibilities of its use to improve the quality of education.

**Key words:** Empathy, perceptual, communicative, pantomime, range, timbre, Ability, speech, pedagogy, education, culture, eloquence;

*Til - shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa - tilning ofatidir .*

*Alisher Navoiy*

Pedagogik qobiliyatlar- pedagogik faoliyatning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat bu - qobiliyat turlaridan biri b'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli

shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qibiliyatlar tuzilishida muhim o'rinni egallaydigan qator komponentlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

-Didaktik qibiliyatlar – bu bolalarga o'quv materialini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota biladigan qibiliyatlardir.

-Akademik qibiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlarga xos qibiliyatlardir.

-Perseptiv qibiliyatlar – bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qibiliyatlardir.

Pedagog faoliyatida uni yuzaga chiqaradigan asosiy jihat bu- uning nutqi hisoblanadi.

-Nutq qobiliyati – kishining o'z tuyg'u-xislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qibiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbiga muxim qibiliyatlardandir. Chunki o'qituvchidan o'quvchilarga axborot asosan ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatdan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi.

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchining javobini sharhlab beradimi, o'quvchilar javobini, ularning xatti-harakatlari yoki xulq-atvorini ma'qullaydimi yoki tanbeh beradimi, xullas, nima qilishidan qat'iy nazar uning nutqi hamma vaqt o'zining ishonchliligi, jozibadorligi kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim.

Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchidan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallah har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib boradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq. Shu qobiliyat tufayli o'qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasi hisoblanadi. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar sabab bo'lgan. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni

kuchaytirishni talab qildi. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas boglik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televide niye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiylar va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'Imasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi. O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o'qituvchi oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallah uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyanı rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda tovush, diapazon, tembr, diksiya, artikulyatsiya, ritmika, nafas olish muhim rol o'ynaydi. Notiqlik-san'atning eng qadimiy turlaridan biridir. Ko'plab fanlarning beshigi bo'lgan qadimgi Yunoniston notiqlik san'ati sohasida ham jahon madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yaratdi. Nutqning to'g'riliqi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, ta'sirchanligi, jo'yaliligi, boyligi, ifodaviyligi, soddaligi qisqaligini talab etuvchi omillar uning sifatini tashkil etadi. Bularni nutqda to'g'ri qo'llay bilmagan notiq yutqazadi. Nutq paytida notiq bilan tinglovchilar o'rtasida bir-birini tushunishi va yaqinlik ancha jonli bo'lishi lozim. Notiq o'zini tutishi, xarakteri, so'zlashi, fikr yuritishi bilan tinglovchini o'ziga qaratishi lozim. Notiq o'zining so'zi bilan tinglovchini o'ziga jalb qilishi tinglovchida qayta uchrashish ishtiyoqini uyg'otish bilan xayrlashish notiq muvaffaqiyatining garovidir. Nutq davomida tinglovchilardan ayrimlari tez-tez soatiga qarab qo'ysa, esnab o'tirsa bilingki notiq aybdor. Demak, notiqda fikrlash qobiliyati bor, lekin omma e'tiborini tortish iqtidori yo'q. Zero, mashhurlar ko'p, lekin ularning manzur va maqbullari kam. Buyuklar ko'p bo'lgan, lekin ularning suyuklilari kam. Ko'rinish turibdiki, insonning suyuk bo'lishi ba'zan nutqqa ham chambarchas bog'liq, deb o'ylayman.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki ,notiqlik san'ati juda keng qamrovli tushunchadir.Uni bir qolibga solib o'rganish , aniq chegaralash mumkin emas. Notiqlik har bir pedagog faoloyatiga xos xususiyat bo'lib, uning qobilyatlarini yuzaga chiqaruvchi asosiy qurol bo'lib qolishi kerak. Agar pedagogning nutqi aniq ravon va tushunarli bo'lsa va tinglovchilarga ma'ruza mashg'ulotlari to'liq yetqazib berilsa, ta'lim tizimida faqat yuqori pog'onalar zabit etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Azizzuxjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent,"O'qituvchi", 1967-yil.
2. Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69.
3. Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 419-423.
- 4 .Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.
5. Rohat, R. (2021, February). THEORETICAL OVERVIEW OF THE PERSONALITY OF THE LEADER. In Archive of Conferences (pp. 42-44).
6. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI O'RTASIDAGI IJOBİY MUHİITNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. Scientific Impulse, 1(6), 424-429.
- 7 .Raximova R "O'RTA ASR SHARQ OLAMI YETUK MUTAFFAKKIRI ABU NASR FAROBİY ASARLARIDAGI PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK QARASHLAR " «Научный Импульс» 1 dekabr 2022
- 8 .Boysoatovna, R. R. (2023). THE EFFECT OF TRUST BETWEEN THE DOCTOR AND THE PATIENT ON THE EFFECTIVENESS OF TREATMENT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 482-485.